INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

VIRTUAL OLAMNING YOSHLAR IJTIMOIYLASHUV JARAYONIGA TA'SIRINING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Andijon davlat pedagogika instituti

"Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi, P.f.b.f.d professor:

Komilova Xurshida Toxirovna

Pedagogika fakulteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

talabasi **Sayfitdinova Zuxraxon**

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada axborotlashgan jamiyatda virtual olamning yosh avlod ijtimoiylashuv jarayoniga ko'rsatayotgan tizimli ta'siri pedagogik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Virtual muhitning yoshlar ruhiyatiga ta'siri, kiber-makonda shaxs identifikatsiyasi va muloqot madaniyatining o'zgarishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada virtual dunyoda yuzaga keladigan kiberbulying, axborotli manipulyatsiya va gadjetlarga qaramlik kabi salbiy illatlarni bartaraf etishda irodaviy sifatlarni shakllantirishning o'rni yoritilgan. Yoshlarda media-savodxonlik va raqamli gigiyenani yuksaltirish bo'yicha aniq pedagogik shart-sharoitlar hamda metodik tavsiyalar taklif etilgan. Xulosa qismida ta'lim muassasasi va oila hamkorligini raqamli muhitda ta'minlash mexanizmlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Virtual olam, ijtimoiylashuv, pedagogik shart-sharoitlar, kiber-makon, media-savodxonlik, raqamli madaniyat, irodaviy sifatlar, kiberbulying, ijtimoiy adaptatsiya.

Аннотация: В данной научной статье с педагогической точки зрения исследуется систематическое влияние виртуального мира на процесс социализации молодого поколения в информационном обществе. Научно обосновано воздействие виртуальной среды на психику молодежи, изменения в самоидентификации и культуре общения в киберпространстве. В статье подчеркивается роль формирования волевых качеств в искоренении таких негативных пороков, как кибербуллинг, манипулирование информацией и зависимость от гаджетов, которые встречаются в виртуальном мире. Предложены конкретные педагогические условия и методические рекомендации по повышению медиаграмотности и цифровой гигиены среди молодежи. В заключении описаны механизмы обеспечения сотрудничества между образовательным учреждением и семьей в цифровой среде.

Ключевые слова: Виртуальный мир, социализация, педагогические условия, киберпространство, медиаграмотность, цифровая культура, волевые качества, кибербуллинг, социальная адаптация.

Abstract: This scientific article studies the systematic impact of the virtual world on the socialization process of the younger generation in an information society from a pedagogical point of view. The impact of the virtual environment on the psyche of young people, changes in personal identification and communication culture in cyberspace are scientifically substantiated. The article highlights the role of forming volitional qualities in eliminating negative vices such as cyberbullying, information manipulation and gadget addiction that occur in the virtual world. Specific pedagogical conditions and methodological recommendations are proposed for improving media literacy and digital hygiene among young people. The conclusion describes

the mechanisms for ensuring cooperation between an educational institution and a family in a digital environment.

Keywords: Virtual world, socialization, pedagogical conditions, cyberspace, media literacy, digital culture, volitional qualities, cyberbullying, social adaptation.

Zamonaviy pedagogika fanining oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri — shiddat bilan rivojlanayotgan virtual makonning yosh avlod shakllanishiga ko‘rsatayotgan ta’sirini ilmiy asosda tadqiq etishdir. Virtual olam bugungi kun yoshlari uchun shunchaki texnologik qulaylik emas, balki ularning dunyoqarashi, xulq-atvori va ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish jarayoni kechadigan asosiy muhitga aylanib ulgurdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: "Bugun dunyoda yoshlarning ongi va qalbi uchun kurash ketmoqda. Biz farzandlarimizni axborot xurujlaridan faqat taqiq bilan emas, balki ularda sog‘lom dunyoqarash va ma’naviy immunitetni shakllantirish orqali asrashimiz kerak".1 Binobarin, virtual makonni pedagogizatsiya qilish bugungi kunning strategik vazifasidir.

Ijtimoiylashuv — bu shaxsning jamiyatdagi me’yorlar va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonidir. Virtual olamda bu jarayon ko‘p hollarda nazoratsiz kechadi. Tadqiqotchi olim N.Boymurodov ta’kidlaganidek, "Virtual olam yoshlarda muloqotning yangi shakllarini yaratadi, biroq bu muloqot ko‘p hollarda hissiy kambag‘allik va mas’uliyatsizlikka asoslanadi" .2

1-chizma. Virtual olamning yoshlar ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi pedagogik strategiyalar modeli:

1 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T : O‘zbekiston, 2021.Bet- 165.

2 Boymurodov N. Amaliy psixologiya. T : Fan va texnologiyalar, 2020.Bet- 88.

INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X



Yuqoridagi modelda ko'rib turganimizdek, ijtimoiylashuv jarayoni bir necha pedagogik komponentlar bilan chambarchas bog'liq. Virtual makonda yoshlar duch keladigan asosiy muammolar qatoriga kiber-addiksiya, identifikatsiya inqirozi va kiberbulyingni kiritish mumkin. Chizmaning markazida "YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVI" (Youth Socialization) turadi. Uni o‘rab turgan to‘rtta o‘zaro bog‘langan doira davomiy pedagogik strategiyalarni ko‘rsatadi: "Irodaviy sifatlarni shakllantirish" (Developing Volitional Qualities), "Media - savodxonlikni oshirish" (Increasing Media Literacy), "Milliy qadriyatlarga asoslanish " (Based on National Values), va "Axborot xavfsizligini ta’minlash " (Ensuring Information Security)Yuqoridagi chizmadan kelib chiqib,virtual makon bugungi kunda yoshlar uchun nafaqat muloqot maydoni, balki ularning dunyoqarashi va qadriyatlari sinovdan o‘tadigan o‘ziga xos laboratoriyadir. Bu yerda shaxs o‘zining real hayotdagi cheklovlaridan xoli bo‘lishga intiladi, bu esa pedagogik nuqtai nazardan ham imkoniyat, ham xavf tug‘diradi. Imkoniyat shundaki, yoshlar o‘z iqtidorini global miqyosda namoyon etishi mumkin, xavf esa — axborot manipulyatsiyasi va ma’naviy begonalashuvdir. Rossiyalik tadqiqotchi E. Putilova yozganidek: "Virtual makonda shaxsning shakllanishi faqat texnik ko‘nikmalarga emas, balki uning ichki madaniyati va qadriyatlar tizimiga suyanadi".3 Demak, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi ularning real

3 Путилова Е.А. Факторы социализации молодежи в условиях виртуализации общества. М : Логос, 2018. С : 54.

hayotdagi tarbiyasi va axloqiy mezonlari bilan uyg‘un bo‘lishi zarur. Pedagoglar bu jarayonda yoshlarga faqat ko‘rsatma beruvchi emas, balki ularning raqamli dunyodagi izlanishlariga hamrohlik qiluvchi maslahatgoy bo‘lishlari talab etiladi. Shaxs ijtimoiylashuvida virtual muhitning salbiy ta’sirini kamaytirish uchun pedagogik faoliyatda "media-gigiyena" tushunchasini kengroq tatbiq etish lozim. Bu shunchaki texnik bilim emas, balki internetdagi kontentning sifati va uning shaxs kamolotiga ta’sirini anglashdir.Pedagogik shart-sharoitlar sirasiga, shuningdek, o‘quvchilarning virtual va real faoliyatlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash ham kiradi.

Virtual olamning salbiy ta’sirlarini kamaytirish uchun maxsus pedagogik ierarxiya yaratish lozim. Bu nafaqat texnik bilim, balki axloqiy javobgarlikni ham o'z ichiga oladi. 2- chizma : Yoshlarda media-savodxonlik va raqamli madaniyatni shakllantirish ierarxiyasi (Piramida).

Piramidaning eng yuqori cho'qqisi — Ma'naviy-axloqiy filtrdir. Yoshlarda ma’naviy qalqon yaratishda milliy adabiyotimiz durdonalaridan foydalanish zarur. Piramidaning asosi bo’lgan quyi bosqichlarda inson gadjetlardan foydalanishni va virtual muhitda muloqot qilishning boshlang’ich qoidalarini o’zlashtiradi.O’rtacha bosqichda foydalanuvchi axborot oqimini saralashni, yolg’on ma’lumotlarni haqiqiyidan ajratishni va voqelikka mustaqil baho berishni o’rganadi.



Chizmaning eng pastki qismida "TEXNIK KO'NIKMALAR" (Technical Skills) turadi. Uni o'rab turgan doira "TANQIDIY TAHLIL VA BAHOLASH" (Critical Analysis and Evaluation), "KO'NUKMATIV KO'NIKMALAR" (Communication Skills) orqali "AXLOQIY JAVOBGARLIK VA MA'NAVIY-AXLOQIY FILTR" (Ethical Responsibility and Moral-Ethical Filter)ni ko'rsatadi. Bu piramida yoshlar raqamli madaniyatining rivojlanish bosqichlarini ierarxik tarzda tasvirlaydi.) Masalan, Shuhratning "Oltin zanglamas" asaridagi Sodiq obrazining matonati4 yoki Odil Yoqubovning "Diyonat" asaridagi axloqiy tamoyillar 5virtual dunyodagi yot g'oyalarga qarshi eng kuchli qurol bo'la oladi.

Andijon davlat pedagogika instituti talabalari o'rtasida o'tkazgan kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, yoshlar internetda juda faol, biroq ularga "yo'l ko'rsatuvchi" navigator (ustoz) yetishmaydi. Mening fikrimcha, virtual olamni taqiqlash emas, balki uni pedagogizatsiya qilish kerak.

3-chizma. "Oila-Maktab-Virtual Muhit" hamkorlik matritsasi



Mazkur matritsa yordamida biz virtual olamdagi xavflarni qanday qilib ta'limiy imkoniyatga aylantirish mumkinligini ko'rishimiz mumkin.Oila (Ishonch ko'prigi): Tarbiyaning poydevori - qat'iy taqiqlar emas, balki ota- ona va farzand o'rtasidagi samimiy

4 Shuhrat. Oltin zanglamas (roman). – T.: Sharq, 2018.

5 Yoqubov O. Diyonat (roman). – T.: G'afur G'ulom, 1978.

muloqot hamda tizimli nazoratdir. Maktab(Intellektual filtr): Ta'lim maskani o'quvchida axborot oqimini saralash, ya'ni media- savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga mas'uldir.Virtual muhit(Raqamli xavfsizlik): Internet makonining filtrlangani va kontentning foydaliligi bolaning kiber-tahdidlardan himoyalangan holda rivojlanishini ta'minlaydi.Ijtimoiy(Hayotiy adaptatsiya): Yuqoridagi uch omil burlashib, bolaning jamiyatda sog'lom muloqotga kirishishi va har qanday muhitga muvaffaqiyatli moslashishiga zamin yaratadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, virtual olam — bu ulkan imkoniyatlar laboratoriyasidir. Agar biz pedagogik shart-sharoitlarni (media-savodxonlik, irodaviy tarbiya, oila-maktab hamkorligi) to‘g‘ri yarata olsak, ushbu laboratoriyadan ma'naviy boy, irodali yoshlarni tarbiyalab chiqaramiz. Amaliy tavsiyalar:

1. Kiber-madaniyat va etika: Virtual olamda muloqot madaniyatini shakllantirish bo'yicha treninglar o'tkazish.Yoshlarga izohlar yozish etikasi, shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi va boshqalarning fikriga hurmat bilan qarashni o'rgatish orqali virtual bullying (kiber-tahqirlash)ning oldini olish.

2. Gamifikatsiya va ta'limiy o'yinlar: Virtual olamni shunchaki ko‘ngilochar maskan emas, balki intellektual maydonga aylantirish. O‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga chorlaydigan, milliy qadriyatlarimiz va tariximiz aks etgan o‘zbek tilidagi ta'limiy mobil o‘yinlar va kvestlar bazasini yaratishni rag‘batlantirish.

3. Raqamli gigiyena va vaqt menejmenti: Yoshlarda "Raqamli detoks" ko‘nikmasini shakllantirish. Internetga bog‘lanib qolish (gadjetga qaramlik)ning oldini olish uchun virtual va real hayot o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, foydali ilovalar orqali ekranga sarflanadigan vaqtni mustaqil boshqarishni o‘rgatish.

Virtual olam yoshlar ijtimoiylashuvida ham xavf, ham ulkan imkoniyat manbai bo‘lib, undan samarali foydalanish bevosita oila, maktab va raqamli muhitning o‘zaro pedagogik hamkorligiga bog‘liq. Yoshlarda media-savodxonlik va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish orqali biz ularni passiv axborot iste'molchisidan milliy kontent yaratuvchi ijodkor shaxs darajasiga olib chiqishimiz zarur. Faqatgina tizimli nazorat va ma'naviy-irodaviy tarbiya uyg‘unlashgan muhitdagina virtual makon barkamol avlodni shakllantiruvchi zamonaviy intellektual maydonga aylana oladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. 165-b.

2. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2020. – 88-b.

3. Путилова Е.А. Факторы социализации молодежи в условиях виртуализации общества. М : Логос, 2018. С : 54.

4. Shuhrat. Oltin zanglamas (roman). – T.: Sharq, 2018.

5. Safarova R. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2018. – 112-b.

6. Yoqubov O. Diyonat (roman). – T.: G‘afur G‘ulom, 1978.

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index:* *google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

Said Ahmad. Jimjitlik (roman). – T.: Adabiyot, 2011.